



UMUMTA'LIM MAKtablari O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Sattarova Mahfuzahon Solievna
Andijon tumani 43-maktab O'IBDO'
E-mail:mahfuza43@mail.ru
Tel:+998979717338

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumta'lism maktablari o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini rivijlantirish orqali maktablarda ta'lim sifatini oshirish yo'llari haqida fikrlar yuritiladi. Shuningdek, maktab ta'lim muassasasi o'qituvchilarining kasbiy va shaxsiy fazilatlari, pedagogik madaniyatini rivijlantirish orqali o'quvchilar o'rtaida liderlik qobiliyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maktab, o'qituvchilar, o'quvchilar, pedagogik madaniyat, adolatli boshqaruv usullari, ta'lim–tarbiya, rahbarlik sifatlari, boshgaruv faoliyati, kasbiy fazilatlar, shahsiy sifatlar, ma'naviyat, sog'lom avlod, pedagogika.

Kirish (Introduction) Jahon ta'lim tizimida kechayotgan globallashuv va integratsiya jarayoni tufayli maktab o'qituvchilarining shaxsiyati va ma'naviyati, kasbiy faoliyati, ijodiy mahorati, raqobatbardoshligiga qo'yilgan yuqori talablar ularning o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ta'minlashni taqozo etadi. Ushbu tendentsiya sabab xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan "pedagogik madaniyat"ni (pedagogical culture) shakllantirish muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga e'tibor kuchaymoqda. Rivojlangan mamlakatlar pedagogik tizimida o'qituvchining kompetentlilik darajasini oshirish, shaxsiy samaradorlikka erishishda, avvalo, uning o'z kasbiga bo'lgan munosabati va uzlusiz kasbiy rivojlanishi, jamiyatning o'zgaruvchan talablaridan kelib chiqadigan ijtimoiy buyurtmani to'laqonli bajarishda eng muhim komponent, ya'ni uning pedagogik madaniyatini rivojlanish dolzarb vazifa etib belgilanganligi soxani keng ko'lamdagi ilmiy ishlanishlar olib borish muhim dolzarb ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review) Xalqaro va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta'lim sohasida faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarning pedagogik faoliyatiga ijobiy



munosabatlarini shakllantirish, pedagogik va ilmiy faoliyatini samarali tashkil etishning maqbul pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish, shuningdek, o'qituvchilarni zamonaviy ta'lif talablariga moslashuvchanlini ta'minlash, pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan kasbiy deformatsiya hodisasini ularning pedagogik madaniyatini rivojlantirish orqali oldini olishning pedagogik imkoniyatlarini belgilash va takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ta'lif mazmunini yangi bosqichga ko'tarish hamda ta'lif jarayonlarini samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan islohotlar bugun o'z samarasini bermoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmonida "Maktablarda ta'lif sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi, pedagogik madaniyati va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish" kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, maktab o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqazo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Psixologiya va pedagogikada "madaniyat" tushunchasi mazmuni har tomonlama ta'riflangan bo'lsada, ilmiy izlanishlarda hamon muhokama qilinmoqda. Maktab o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini rivojlantirish haqida gap ketganda, eng avvalo, "madaniyat" tushunchasining mohiyatini aniqlab olish zarur. Madaniyat tushunchasi pedagog-psixolog olimlar tomonidan quyidagicha talqin qilingan: Madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yig'indisi madaniyatda gavdalananadi (E.Gulmetov, T.Qobiljonova, Sh.Ernazarov, A.Havruзов). "Madaniyat" va "Kultur" atamalari mutaxassislar fikriga ko'ra ayni bir ma'noni anglatib, lotincha "cultural" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tarbiyalash, o'stirish, rivojlanish, e'zozlash degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik "ma'rifatli bo'lish", "tarbiyali", "bilimli bo'lish" mazmunida ishlatilgan. Bundan tashqari madaniyat tarixiy nuqtai nazardan inson va jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichi hisoblanadi. Unda inson hayoti va faoliyatining turlari va shakllari aks ettiriladi. Bunda shaxs tomonidan tanlab olingan moddiy va ma'naviy qadriyatlar inobatga olinadi. Biroq, hozirgi vaqtga qadar "madaniyat" tushunchasining yagona va universal ta'rifi deyarli ishlab chiqilmagan. Bunga sabab uning ko'p aspektliligi, ko'plab turdag'i tasniflarning shakllantirilganligidir. Endi "pedagogika" so'zining lug'oviyl ma'nosini tahlil qiladigan bo'lsak, u yunoncha "paidagogike"-tarbiya, ta'lif xamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar



majmuasidir. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug'ullangan. Zamonaviy Pedagogika bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan shug'ullanishni ko'zda tutadi. Biz odatda, tarbiyalangan, xushxulq, odobli shaxsni "madaniyatli" deb gapiramiz. Demak, madaniyatli bo'lismi uchun inson tarbiyalangan bo'lismi kerak eakn. Tarbiya esa pedagogikaning mahsulidir. Bundan kelib chiqadiki, pedagogik madaniyat atamasi xam xuddi ota-oni, ona Vatan kabi so'z birikmalarida ularni bir biridan ayrib ishlatib bo'limganidek, pedagogik madaniyatni atamasini xam bir biridan ayrib talqin qilib bo'lmas ekan. Xulosa shuki, pedagogika, ya'ni ta'lim tarbiya bilan shug'ullanuvchi kasb egasi madaniyatli bo'lismi talab etiladi. Lekin ming, afsuski, xozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimida eng dolzarb muammolardan biri, mакtab o'qituvchilarida aynan pedagogik madniyat rivojlanmaganligini ko'rish mumkin.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Biz tomonimizdan o'rganilgan adabiyotlar asosida va talim tizimida boshqaruvning asosiy vazifalari hamda baholash faoliyatiga refleksiv yondashuvdan kelib chiqqan holda biz muvaffaqiyatli rahbarning kasbiy -shaxsiy fazilatlari, ahamiyatli ko'nikmalarini va qobiliyatlarini belgiladik (1-jadval).

Maktab o'qituvchilarida pedagogik madaniyatning rivojlanganlik ko'rsatkichlari

Pedagogik madaniyatning rivojlanganlik	Mazmuni
I. Boshlang'ich daraja	<p>Ma'naviy jihatdan rivojlanishning qadriyat sifatida shakllanmaganligi, ta'lim jarayonini loyihalashtira olmaslik, ijodkorlikning yaqqol namoyon bo'lmasligi, nutq qobiliyatining sust rivojlanganligi, kirishuvchanlik va faollik yaqqol namoyon bo'lmaydi, qiziqishlarning barqaror emasligi; o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan ehtiyojning qoniqarsizligi, o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi; ijodiy fikrlashga, pedagogik faoliyat bilan bog'liq bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga nisbatan ehtiyojning yuqori darajada emasligi; shaxslararo munosabatlarning sust rivojlanganligi, birgalikdagi</p>



II. Quyi daraja Jamoada sog‘lom psixologik muhitni tashkil etishni bilish	pedagogik jarayonni loyihalashtira oladi, o‘z-o‘zini shaxsiy va kasbiy jihatdan rivojlantirishga nisbatan ehtiyoj mavjud, nutq qobiliyati o‘rta darajada rivojlangan, lekin tashkilotchilik va faollik yaqqol namoyon bo‘lmaydi, qiziqishlar barqaror; o‘z-o‘zini rivojlantirishga nisbatan ehtiyoj mavjud, ijodiy fikrlashga harakat qiladi, pedagogik faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga nisbatan ehtiyojning yuqori darajada emasligi; AKTlaridan foydalana oladi
III. O‘rta daraja	Kasbiy faoliyatga qadriyatli yondashadi, pedagogik jarayonni loyihalashtira oladi, mustaqil fikrlay olish, shaxs faolligining rivojlanganligi, vazifalarni bajarishning samarali usullarini tanlay bilishi, sodir bo‘lgan voqeahodisa yuzasidan mustaqil fikr bildirishi, muloqotchanlik ko‘nikmalarining shakllanganligi, o‘z-o‘zini sog‘lomlashtirishga intilishning mavjudligi, birgalikda hamkorlikda qashuv nedaosik faoliyatda tayyorligi
IV. Yuqori daraja	O‘qituvchining o‘z kuchiga va imkoniyatlariga ishonishi, shaxsiy tashabbuskorligi, fikrlashning mustaqilligi va tanqidiyligi, nutqning boyligi, fikrning mazmundorligi, sog‘lom turmush tarziga oid nazariy va amaliy bilimlarga egaligi, shaxsning o‘z faoliyatini mustaqil va tizimli tashkillashtira olishi, muloqotchanlik ko‘nikmalariga egaligi, birgalikda hamkorlikdagi kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorligi, axloqiy sifatlarning yuqori darajada aks etishi; fikrlash, baholash va o‘quv jarayoni natijalari va yutuqlarini bashorat qilish qobiliyatiga egalik; shaxsiy va kasbiy faoliyatga oid harakatlar bo‘yicha o‘z-o‘zini

Maktab o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan suhbat, anketa-so‘rovnama, blitz-so‘rov, trening mashg‘ulotlari, kommunikativ kompetensiyaning rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan test sinovi natijalari asosida ularning pedagogik madaniyatini baholash to‘rtta darajaga bo‘lib aniqlandi. Nazorat 100 ballik tizim asosida amalga oshirildi. SHuningdek, «IV» «yuqori» darajaga 81 va undan yuqori ball to‘plaganlar, «III» «o‘rta»



Maktab o‘qituvchilarida kasbiy madaniyatning rivojlanganlik darajasi (dastlabki va yakuniy nazorat kesimi natijalari tahlili)

darajaga 61 dan 80 ballgacha to‘plaganlar, «II» «quyi» darajaga 41 dan 60 balgacha to‘plaganlar, «I» boshlang‘ich darajaga 35 dan 40 ballgacha to‘plaganlar kiritildi.

Jadvalda keltirilgan qiymatlar diagrammalarda quyidagicha ifodalandi:

Maktab o‘qituvchilarida pedagogik madaniyat rivojlanganligining dastlabki va yakuniy nazorat kesimi natijalari

Darajalar	Tajriba avvalida				Tajriba yakunida			
	Tajriba guruhi (126 nafar)		Nazorat guruhi (124 nafar)		Tajriba guruhi (126 nafar)		Nazorat guruhi (124 nafar)	
	Sonda	Foizda	Sonda	Foizda	Sonda	Foizda	Sonda	Foizda
Boshlang‘ich	20	15,9 %	21	16,9 %	3	2,4 %	14	11,3 %
Quyi	44	34,9 %	41	33,0 %	13	10,3 %	30	24,2 %
O‘rta	33	26,2 %	34	27,4 %	44	34,9 %	41	33,0 %
YUqori	29	23,0 %	28	22,6 %	66	52,4 %	39	31,4 %



Keltirilgan jadval va diagrammalardagi raqamlardan ko‘rinib turibdiki, ma’lumotlarni qiyosiy-statistik qayta ishlash natijalariga asoslanib, shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari bosqichida biz tomonimizdan amalga oshirilgan ta’lim amaliyoti



maktab o‘qituvchilarida pedagogik madaniyat xususiyatlarining yuqori darajada rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

ADABIYOTLAR:

1. Абрамова И.Г., Белякова Л.Ю. Управленческая компетентность. В помощь руководителю дошкольного образовательного учреждения. - СПб.: Пресс, М.: Изд-во АСТ 2003. - 84с.
2. Абраухова В.В. Инновационные подходы в деятельности учреждения дополнительного образования как средства его развития. Автореф. дис канд. пед. наук. Ростов н/Д., 1997. - 23с.
3. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. -М.: Наука, 2000.-335 с.